

MUQIMIY HAJVIY ASARLARIDA HUQUQIY MUAMMOLARNING AKS ETISHI

Djurakulova Elmira Suyunovna

**TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey o‘qituvchisi,
f.f.n.**

Badiiy adabiyot ijtimoiy-siyosiy hayotni o‘zida teran aks ettiruvchi so‘z qudratining mahsuli bo‘lgan san’atdir. O‘tkir qalami bilan XIX asr o‘zbek milliy adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy o‘zining satirik, yumoristik, ijtimoiy, siyosiy yo‘nalishdagi asarlari bilan o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan lirik shoirdir. Muqimiy o‘z davrining ilg‘or ziyolilaridan biri bo‘lib, hajviy asarlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy va huquqiy muammolarni fosh etgan. Uning hajviy she‘rlarida adolatsiz hukmronlik, mansabparastlik, sud va amaldorlarning poraxo‘rligi, oddiy xalqning huquqsizligi kabi masalalar aks etadi. Uning “Tanobchilar”, “Maskovchi boy ta’rifida”, “Dodhohimiz”, “Saylov” kabi satirik asarlari badiiy adabiyot olamida haligacha sevib o‘qib kelinmoqda va tahlil qilinmoqda.

Ijodkor asarlarida o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvol tangligini jasoratli va asosli bayon etadi. Xalqining qiyin vaziyatda yashayotganini ko‘rib qo‘lidan hech narsa kelolmasligini his qilgan shoir, bor kuchi va adolatsizlikka qarshi qarashlarini she‘r qilib o‘zining satirik va ijtimoiy-siyosiy mavzuda yozilgan g‘azallariga tushiradi.

Muqimiyning “Tanobchilar”i hajviy ruhda yozilgan adolatsizlik, poraxo‘rlik va huquqiy tengsizlik kabi muammolar tanqid qilingan eng mashhur asaridir. Asarda eski tuzum davridagi mahalliy amaldorlarning noqonuniy ishlari, kambag‘al xalq ustidan o‘tkazilgan zulm, adolatsizliklari mahorat bilan tasvirlangan.

Tanob o‘lchoviga doir firibgarliklar va bu jarayonda amaldorlarning o‘z manfaatini ko‘zlagani ochib beriladi. Yozuvchi buni juda mahorat bilan tasvirlaydi:

Sulton Ali Xo‘ja bilan Hakimjonlar hokimiyat vakillari sifatida xalq ustidan cheksiz zo‘rlik va zulm o‘tkazish huquqiga ega edilar. Shu ular o‘zlarini xo‘jayin hisoblab, xalqni istagancha haqorat qilar, do‘q urar edilar. Muqimiy satirada amaldorlarni fosh etishni kuchaytira boradi, ularning poraxo‘rligini fosh etadi, shu bilan

birga ham pora olishi va yer solig‘ini ikki barobar qilib belgilab ketishlarini yorqin aks ettirardi. Bu tipik hodisa edi.

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar.

Adl qulog‘i-la eshit holimi,
Zulm qilur, baski, menga zolimi.

O‘n iki oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohat-u menga azob.

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.

Fuqarolarning huquqiy himoyasizligi – kambag‘allar va oddiy xalq ustidan chiqarilgan noqonuniy qarorlar orqali huquqsizlik tasvirlanadi. Zolim amaldorlarning hukmronligi – xalqni aldash haqida so‘z boradi.

Shoir amaldorlarning xalq manfaatlarini unutib, o‘z boyligi va obro‘cini oshirish uchun harakat qilishini hajviy uslubda tasvirlaydi. Poraxo‘rlik va tizimdagi adolatsizlik, zo‘ravonlik asarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Manki tanobingg‘a chiqibman kelib,
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.

O‘t qo‘yubon kuyduradurg‘on o‘zim,
Hokiming-u o‘lduradurg‘on o‘zim.

Xoh tanobingni du chandon qilay,
Xoh karam birla boshingni silay».

...Ikki tanobini qilay o‘n tanob,
Yurtingizi kuydurub aylay xarob.

Poraxo‘r amaldorlarning zulmidan to‘ygan, lekin qo‘lidan hech narsa kelmaydigan, kimga ishonishni va suyanishni bilmagan, haq-huquqi toptalgan fuqaro o‘lganini kunidan pora berib zolimlarni og‘zini yopmoqchi bo‘ladi. **Lekin bu bilan maqsadga erisha oladimi?**

Bir-biriga qishloq eli boqishib,
Goh u yon, goh bu yon chopishib.

Jam bo‘lishib aylayubon maslahat. –
“Do‘g‘mag‘a, –der, bir nima berib jo‘nat”.

Aqcha qo‘lida iki-uch mo‘ysafid Derki:
“Bu nazringiz-u, bizlar murid”.

Tanob o‘lchash kimlargadir to‘y bo‘lsa, kimlargadir a‘zaga aylanadi. Ming istihola, yalinish, yolborish bilan yig‘ilgan pulni berib, shunga qaramay biri ikki bo‘lmagan qora xalqning “Kambag‘alni otni ustida ham it qopadi”.

Zulm bilan ellig-u yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur.

Tag‘i bular yaxshi-yu bizlar yomon,
El tamizidin hazar et, al‘amon.

Shoirning boshqa hajviy asarlarida boylar va amaldorlar manfaatlari himoya qilinib, kambag‘allar esa zulm ostida qolishi ifodalangan. Muqimiy xalqning qonun oldida teng bo‘lishi lozimligini hajv orqali bildirgan.

Uning ayrim hajviyalarida aybsiz odamlarning nohaq jazolanishi, aybdorlarning esa pul yoki aloqalar orqali jazodan qutulib qolishi yoritiladi.

Muqimiyning hajviy ijodi o‘z davri uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, huquqiy tenglik va adolat uchun kurashish g‘oyasini ilgari surgan.

Shoirning bir necha g‘azallarida ham ijtimoiy tengsizlikni aks ettirgan qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. “Axtaring” nomli she‘rida shunday bayt bor:

Podshoh yo‘qlatsalar nogoh, gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimni, baxti qaro, deb axtaring.

Muqimiy satira va yumorlari, g‘azal, murabba’ va muxammaslarining asosiy obrazi – lirik qahramoni, burch, vafo va sadoqat haqidagi fazilatlarga ega bo‘lgan pokdil, ma’naviy yetuk va ruhan boy inson sifatida tasvir topadi. U shoirga zamondosh aniq tarixiy shaxs, mustamlaka zulmi va zo‘ravonlik hukmron bo‘lgan davr farzandi, mehnatkash xalq vakili, uning na mol-u dunyosi, na amalu mansabi bor. Asarlarida tasvirlagan lirik qahramon birinchi navbatda shoirning o‘zi. Chunki u ham yo‘qsillik, adolatsizlik va tengsizlikdan jabr chekkan, qalbi qon bo‘lgan o‘zbek xalqining o‘sha davrdagi tipik vakili.

Huquqiy g‘oyalar aks etgan didaktik harakterga ega bo‘lgan asarlari bilan xalq qalbidan joy olgan shoir ijodi bugungi kunda bo‘lajak huquqshunos yoshlarga ham saboq bo‘lishi muqarrar.

Adabiyotlar:

1. Muqimiy. Asarlar to‘plami. T - 1960 2. Muqimiy. Saylanma. T – 2009
2. NX Ubaydullayev. The depiction of the image of a creative person in autobiographical inscriptions. Current research journal of philological sciences 2 (07), 36-39, 2021
3. Abdurasulov M. O‘zbek ma’rifatparvar shoirlari ilm-ma’rifat haqida. T.: “O‘qituvchi”. 1972.
4. N Ubaydullayev. Memuar asar tahlili. International conference on interdisciplinary science 1 (10), 268-273, 2024
5. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: “O‘zbekiston. 1993
6. U Normuhammad. A LOOK AT THE HISTORY OF BIOGRAPHICAL WORKS OR MOSES. International Journal of Pedagogics 4 (12), 232-234, 2024
7. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. 1976.
8. U Normuhammad. Biografik Asarlar Tarixi Yoxud Moziyga Bir Nazar. Miasto Przyszłości 55, 279-280, 2024.
9. Хакимов, М. (2024, November). Языковая картина мира и её теоретическое осмысление на примере итальянского языка. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 154-155).
10. Чуканина, Д. Б., & Хакимов, М. Р. (2016). использование видео и аудио педагогических технологий в изучении иностранного языка. Ученый XXI века, 55.

11. Хакимов, М. Р. (2020). Развитие инновационных технологий в системе высшего образования Республики Узбекистан. Re-health journal, (2-2 (6)), 163-164.

12. Danilov, O. E., & Pozdeeva, O. G. (2014). Features of distance learning. In Problems and prospects for the development of education: materials of the V Intern. scientific conf. Perm (pp. 34-37).



**Research Science and
Innovation House**